

<https://hstryres.uz/journal/index.php/makro>

2025, № 6 (12)

ISSN-3030-3761



ТАРИХИЙ ТАДҚИҚОТЛАР
Илмий журнали

ИСТОРИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ
Научный журнал

HISTORICAL RESEARCHES
Scientific journal

ТОШКЕНТ-2025

ТАРИХИЙ ТАДҚИҚОТЛАР
ИСТОРИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ
HISTORICAL RESEARCHES

Бош муҳаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:

Юнусова Хуршида Эркиновна
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети

Бош муҳаррир ўринбосори:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief editor:

Шакиров Иляс Рахимзянович
т.ф.ф.д., (PhD)
Ўзбекистон Миллий университети

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ
РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ
EDITORIAL BOARD

Сагдуллаев Анатолий Сагдуллаевич
тарих фанлари доктори, профессор, Академик
Ўзбекистон Миллий университети
Сулейманов Рустам Хамидович
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Муминов Алишер Гаффарович
Сиёсий фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Зуев Андрей Сергеевич
тарих фанлари доктори, профессор
Новосибирск Давлат университети
Ишанхужаева Замира Райимовна
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Кобзева Ольга Петровна
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Холиқулов Ахмад Баймаҳаматович
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Габриэльян Софья Ивановна
тарих фанлари доктори, доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Убайдуллаева Барно Машрабжоновна
тарих фанлари доктори, доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Очилдиев Файзулла Бобокулович
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Саидбобоев Зокиржон Абдукаримович
тарих фанлари номзоди, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Азизов Илдар Рафаэлевич
тарих фанлари доктори (DSc)
Бизнес ва тадбиркорлик олий мактаби

Сиддиков Равшан Бердимуратович
тарих фанлари номзоди, доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Тухтабеков Козимбек Азимбекович
тарих фанлари номзоди, доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Бабабеков Акбар Давурбаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
Ўзбекистон Миллий университети
Баҳранов Шерзод Таштурсунович
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
Жамоат ҳафсизлиги университети
Алиязарова Дилдора Валишеровна
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Холиқулова Шахноза Боймуҳаммадовна
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Навоий Давлат педагогика институти
Нормуродов Дилмурод Раҳматуллаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Абдулаева Нигора Санжаровна
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Америка технологиялар университети
Тоғаев Жасур Эркинович
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Усаров Умид Абдумавлянович
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Эгамбердиева Гузаль Акрамжоновна
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
Ўзбекистон Миллий университети
Эшқувватов Бобир Валикул ўғли
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Ўзбекистон Миллий университети

Контакт редакции журнала
Город Ташкент, улица Мирзо Голиба,
Исторический факультет
Национального Университета
Узбекистана имени Мирзо Улугбека
Web: <https://hstryres.uz/journal/>
E-mail: I.Shakirov91@mail.ru
Тел: +998900382203

Contact Editors of journal
Tashkent city, street of Mirzo Golib,
Faculty of history of the National
university of Uzbekistan named after
Mirzo Ulugbek
Web: <https://hstryres.uz/journal/>
E-mail: I.Shakirov91@mail.ru
Phone: +998900382203

МУНДАРИЖА / СОДЕРЖАНИЕ / CONTENT

1	Abduraxmonova Kamolaxon Ravshanjon qizi TIBBIYOT ANTROPOLOGIYASI DOIRASIDA BEMORLARNING KASALLIKLAR JARAYONIGA BO‘LGAN QARASHLARINI TAHLIL QILISHNING METODOLOGIK ASOSLARI	5
2	Artikov Ulug‘bek Latifjon o‘g‘li BO‘Z RANGLI SOPOL IDISHLARNING KELIB CHIQISHI VA RIVOJLANISHI	12
3	Askarov Ollabergan Ikrom o‘g‘li FARG‘ONA VODIYSI SO‘NGI BRONZA-ILK TEMIR DAVRI TARIXI PALEOBOTANIK MATERIALLARDA AKS ETISHI	24
4	Бахранов Шерзад Таштурсунович СОВЕТ ХУКУМАТИ ТОМОНИДАН ЎЗБЕКИСТОН ССР ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИГИ СОҲАСИДАГИ ИЛМИЙ ТАДҚИҚОТ ВАЗИФАЛАРИНИ ҲАЛ ҚИЛИШ МАСАЛАСИ ТЎҒРИСИДА	36
5	Mo‘ydinov Doniyorjon Avazbek o‘g‘li AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRI DARYO KECHUVLARI TARIXSHUNOSLIGIGA DOIR AYRIM MULOHAZALAR	55
6	Normurodov Dilmurod Raxmatullyevich KITOB TUMANIDAGI SANGANAK (MAKRID) SOY HAVZASIDA OLIB BORILGAN YANGI ARXEOLOGIK QIDIRUV ISHLARI NATIJALARIDAN	60
7	Norova Dildora Radjabovna BOSH KIIYIMLARI VA ULARDAGI ZARDO‘ZLIK SAN’ATINING O‘ZIGA XOSLIGI	76
8	Nosirova Dlrabxon Ikromjon qizi KORONAVIRUS PANDEMIYASI VA UNING TA’SIRIDA OVQATLANISH MUASSASALARI FAOLIYATIDAGI O‘ZGARISHLAR	84
9	Облобердиев Жасурбек Косим угли КОНТАКТНАЯ И ЭНДОГЕННАЯ МОДЕРНИЗАЦИЯ ТРАДИЦИОННОГО ГОСУДАРСТВА: БУХАРА ПРИ МУЗАФФАРЕ И АБДУЛАХАДЕ	90
10	Priniyazov Jetkerbay Adilbayevich QIZIL ANGOBLI SOPOL IDISHLARNING QO‘QON SHAHRINING YOSHINI ANIQLASHDAGI O‘RNI	100
11	Qulboyev Nishonboy Sobur o‘g‘li SANGZOR HAVZASINING TOG‘-OLDI HUDUDLARIDA ANIQLANGAN YANGI YODGORLIKLARNING LANDSHAFT-XO‘JALIK TIZIMI	110
12	Муминов Алишер Гаффарович., Эрназаров Шермухаммад Эшбекович ЎЗБЕКИСТОН МИЛЛИЙ УНИВЕРСИТЕТИ ТАРИХ ФАКУЛЬТЕТИ ДЕКАНЛАРИ ФАОЛИЯТИГА ЧИЗГИЛАР	120

13	Рахимова Ирода Халимовна МЕЖДУНАРОДНАЯ ОБСТАНОВКА И ЕВРОПЕЙСКИЕ МИССИИ В ОСМАНСКОЙ ИМПЕРИИ: ГЕРМАНИЯ И ВЕЛИКОБРИТАНИЯ (XIX В.)	134
14	Саидова Шахноза Шахназаровна УЧАСТИЕ НЕГОСУДАРСТВЕННЫХ НЕКОММЕРЧЕСКИХ ОРГАНИЗАЦИЙ В РЕАЛИЗАЦИИ НАЦИОНАЛЬНЫХ ЭКОЛОГИЧЕСКИХ ПРОГРАММ УЗБЕКИСТАНА	143
15	Tuxtabekov Kozimbek Azimbekovich “ULUS” ATAMASINING KELIB CHIQISHI VA TARAQQIYOT BOSQICHLARI	160
16	Унгарова Ойдин Кобулжон кизи ИСТОРИЯ ИНКЛЮЗИВНОГО ОБРАЗОВАНИЯ В УЗБЕКИСТАНА С 1991 ПО 2023 ГОДЫ: ПРОБЛЕМЫ И ДОСТИЖЕНИЯ	168
17	Xakimova Shoira Sag‘dullayevna O‘ZBEKISTONDA QAYTA TIKLANUVCHI MANBALAR DOIRASIDA SHAMOL ENERGIYASIDAN FOYDALANISH TARIXI	176
18	Ҳамраев Суннатилло Аллабердиевич БУХОРО АМИРЛИГИГА РОССИЯ ИМПЕРИЯСИ ТОМОНИДАН ЮБОРИЛГАН А.Ф. НЕГРИ МИССИЯСИ ТАРИХШУНОСЛИГИ	184
19	Xolliyev Azizbek Go‘zalovich XIX ASRDA JAHON TEMIR YO‘L QURILISHI: ASOSIY YO‘NALISHLAR VA TENDENSIYALAR	195
20	Xolikulov Axmadjon Boymaxammatovich BUXORO AMILIGINING QO‘QON XONLIGI BILAN MUNOSABATLARI	208
21	Xomitov Ravshan Xomitovich MARKAZIY OSIYO DAVLATLARIDA MILLIY OZCHILIK HUQUQLARINING TA‘MINLANISHI MASALASIGA OID	221
22	Шакиров Ильяс Рахимзянович КУЛЬТУРНО-ГУМАНТАРНЫЕ СВЯЗИ УЗБЕКИСТАНА И ФИЛИППИН: ИСТОРИЯ И СОВРЕМЕННЫЙ ЭТАП	229
23	Эргашев Хусан Юсуп ўғли ЎЗБЕКИСТОН МИЛЛИЙ УНИВЕРСИТЕТИ ТАРИХ ФАКУЛЬТЕТИНИНГ ХАЛҚАРО ИЛМИЙ ЛОЙИҲАЛАРДАГИ ИШТИРОКИ (TACIS-TEMPUS МИСОЛИДА)	237
24	Eshkuvatov Bobir Valikul o'g'li GLOBALLASHUV TENDENSIYALARI VA UNING DINIY-MAFKURAVIY HAYOTDA NAMOYON BO‘LISHI	242

Askarov O. I.

«Bioarxeologiya laboratoriyasi» bo'limi katta ilmiy xodimi

Milliy arxeologiya markazi

askarovollabergan@gmail.com**FARG'ONA VODIYSI SO'NGI BRONZA-ILK TEMIR DAVRI TARIXI
PALEOBOTANIK MATERIALLARDA AKS ETISHI****ANNOTATSIYA**

Farg'ona vodiysi so'nggi bronza-ilk temir davrida Markaziy Osiyoda shakllangan eng muhim agrar hududlardan biri bo'lib, Chust madaniyati bu jarayonning asosiy markazini tashkil etadi. Arxeologik va paleobotanik dalillar yerto'la uylar, chorvachilik, liman dehqonchiligi va keyinchalik sug'orma dehqonchilikka o'tish jarayonlarini aniq ko'rsatadi. To'raqo'rg'on, Kosonsay, Norin va Koshtepa-2 yodgorliklaridan olingan materiallar don yetishtirish, yig'ish, saqlash va qayta ishlash tizimlarining murakkab va barqaror shakllanganini tasdiqlaydi. Tosh serplar, kul qatlamlari, karbonlashgan donlar va xo'jalik izlari Farg'ona vodiysining qadimdan rivojlangan agrar markaz sifatida shakllanganini yana bir bor isbotlaydi.

Kalit so'zlar: Farg'ona vodiysi, Chust madaniyati, paleobotanika, bronza davri, dehqonchilik, sug'orish tizimi, tariq, arpa, bug'doy, Kosonsay, Kultepa, agrar landshaft, xo'jalik tizimi.

KIRISH

Farg'ona vodiysi Markaziy Osiyodagi eng qadimiy agrar hududlardan biri bo'lib, so'nggi bronza va ilk temir davrida bu yerda dehqonchilik va chorvachilikka asoslangan barqaror xo'jalik tizimi shakllangan. Ayniqsa Chust madaniyati vodiyni ushbu davrdagi asosiy madaniy kompleksi bo'lib, uning dastlabki bosqichida aholi yerto'la uylarda yashagan, chorvachilik va liman usulidagi dehqonchilikni birga olib borgan. Qoramol, qo'y, echki va yilqi boqilishi bilan birga bug'doy, arpa va tariq kabi ekinlarning ekilishi agrar hayotning barvaqt shakllanganini ko'rsatadi. Keyingi bosqichda uy-joylarning yer ustida qurilishi, sug'orma dehqonchilikning kengayishi va bog'dorchilikning rivojlanishi xo'jalik tizimining murakkablashganidan dalolat beradi. Namangan viloyatining To'raqo'rg'on, Kosonsay va Norin tumanlarida qayd etilgan yodgorliklar Farg'ona vodiysi shimoliy qismida agrar landshaftning qanday shakllanganini ko'rsatadi. Kosonsay vohasining tabiiy-geografik sharoiti - tog'oldi adirlari, yerosti suvlari chiqadigan kichik maydonlar va sug'orma dehqonchilikka mos allyuvial tekisliklar – ikki bosqichli xo'jalik modelining vujudga kelishiga imkon bergan. Chust manzilgohi qatlamlaridan topilgan yonib ketgan donlar, arpasimon o'simliklar, tosh serplar va don yanchish qurollari dehqonchilikning asosiy tarmoq sifatida shakllanganini ko'rsatadi. Kultepa yodgorligida qayd etilgan kul qatlamlari, sopol idishlar, xo'jalik inshootlari va don saqlash izlari Farg'ona shimoliy hududlarida agrar tizimning barqarorligini tasdiqlaydi. Ushbu ma'lumotlar so'nggi bronza-ilk

temir davri aholisi don yetishtirishni, uni qayta ishlashni va saqlashni yaxshi o'zlashtirganini ko'rsatadi.

TADQIQOTNING ASOSIY NATIJALARI

Farg'ona vodiysining so'nggi bronza va ilk temir davri Chust madaniyat xo'jaligida dastlabki bosqichida aholi yerto'la uylarda yashab, chorvachilik va liman usulli dehqonchilik xo'jaligini yuritganlar. Chorvachilikda qoramol, qo'y, echki va yilqi boqilgan. Chust madaniyatining ikkinchi bosqichida esa, aholi uy-joy imoratlarini yer usti barpo qilib, sug'orma dehqonchilik xo'jaligini rivojlantirgan. Dehqonchilikd arpa, bug'doy, tariq va boshqa dukkakli o'simliklar ekilgan. Dehqonchilikning boshqa bir muhim tarmog'ini bog'dorchilik tashkil etgan [4, 74–76]. Muhim tomoni shundaki, Dalvarzintepa manzilgohining ark, shahriston qismlaridan tashqari muhofaza qilingan uchinchi qismi (Dalvarzin II) ham mavjudki, tadqiqodchining fikriga ko'ra undan harbiy xavf paytida chorva mollarini himoya qilish maqsadida foydalanilgan [7, 20–37]. Umuman Chust madaniyatining barcha bosqilarida chorvachilik xo'jaligining yetakchilik ahamiyati saqlanib qolgan.

Farg'ona vodiysi shimoliy qismi, xususan, Namanagan viloyatining To'raqurg'on, Kosonsoy va Norin tumanlari hududi so'nggi bronza–ilk temir davri agrar tizimini tiklash uchun juda muhim maydon bo'lib, bu yerda qayd etilgan manzilgohlar, shahar harobalari va qabristonlar majmuasi uzoq davr davomida shakllangan dehqonchilik va chorvachilik tizimlarining izlarini o'zida jamlagan. 2017 yilgi qidiruv–tekshiruv ishlari natijasida hudud bo'yicha arxeologik yodgorliklar majmuasini tuzish vazifasi qo'yilib, To'raqurg'on va Kosonsoy tumanlarida qayta ko'rik va aniqlashtirish ishlari, Norin tumanida esa Kultepa yonbag'rida shurf va kesmalar orqali stratigrafik ma'lumotlar yig'ilgan. Bu ishlar bronza davridan boshlab o'rta asrlargacha bo'lgan davrda Farg'onaning shimoliy hududlari uzluksiz o'zlashtirib borilganini, tabiiy muhitni sun'iy sug'orish tizimlari orqali o'zgartirish asosida barqaror agrar landshaftlar vujudga kelganini ko'rsatadi. Hisobot mualliflari ta'kidlaganidek, Farg'ona vodiysining bu qismida yodgorliklar juda ko'p bo'lishiga qaramay, ular hali to'liq tizimli tahlil qilinmagan, kompleks tarzda xaritalashtirilmagan va hudud bo'yicha yakuniy umumlashtiruvchi tarixiy–madaniy xulosalar ishlab chiqilmagan; ularning taxminan beshdan bir qismi (20 %) nisbatan keng ko'lamda o'rganilgan, qolganlari esa faqat dastlabki qaydlar darajasida qolgan [2, 100–117; 5, 92–95]. Bu holat so'nggi bronza–ilk temir davri paleobotanik tahlili uchun ham muammo va ham imkoniyat yaratadi: bir tomondan bevosita o'simlik qoldiqlari bo'yicha ma'lumotlar cheklangan, ikkinchi tomondan esa yodgorliklarning joylashuvi, irrigatsiya tizimlari, tabiiy–geografik tavsifi va qisman xronologik ramkalari agrar jarayonlarning umumiy modelini tiklashga yordam beradi.

Kosonsay va uning atrofidagi voha Farg'ona vodiysida inson tomonidan eng erta va intensiv o'zlashtirilgan hududlardan biri sifatida ko'rsatiladi. Hisobotda qayd etilishicha, Kosonsay vohasining shimoli–sharqida joylashgan “Hok” va “Aflotun” xazinalarining topilishi bu hududni aynan ilk bronza davridayoq o'zlashtirish boshlanganidan dalolat beradi [4, 52–56]. Bu xazinlar tarkibidagi

metall buyumlar, quollar va ehtimoliy marosim ashyolari bilan bir qatorda, ularning topilish konteksti – tog‘oldi zonalarida, suv manbalariga yaqin maydonlarda joylashuvi – bu yerda chorvachilik bilan uyg‘unlashgan dehqonchilik tizimi erta bosqichdanoq shakllanganini ko‘rsatadi. Bronza davri Bulakbashi manzilgohi aynan Kosonsay atrofidagi qulay tabiiy–geografik muhitdan foydalanishga asoslangan aholi turar joyi bo‘lib, dastlab antik davrga mansub deb davrlashtirilgan bo‘lsa-da, keyingi tadqiqotlar uning bronza davriga oid ekanini ko‘rsatgan [2, 109; 5, 27-32]. Manzilgohning Xitoysoyning o‘ng qirg‘og‘ida joylashuvi, suv manbaiga yaqinligi va hozirda butunlay yo‘qolib ketgani, agrar tizimlarning keyingi qayta o‘zlashtirish bosqichlarida qadimgi qatlamlar ustidan yangi irrigatsion tarmoqlar o‘tganini taxmin qilishga imkon beradi. Hisobotda alohida ta’kidlanishicha, Kosonsay vohasi butun Farg‘ona vodiysi uchun xos bo‘lgan ekologik–geomorfologik modelni namoyon etadi: tuman Chotqol tog‘ tizmasining janubiy yonbag‘irlaridagi adirlar o‘rtasida, “Kosonsay proalliviyal qiyaligi” deb nom olgan pasttekislikda, Boyiston va Sursan adir tizmalarining orasida, dengiz sathidan 790 metr balandlikda joylashgan bo‘lib, tektonik depressiya sifatida Kosonsay, Do‘storsay va boshqa soylarning proalliviyal shag‘al hamda lo‘yqa cho‘kindilari bilan to‘lgan. Bu yerda ikki joyda yerosti suvlari chiqishi qayd etilgan bo‘lib, ular vohaning suv balansida muhim rol o‘ynaydi; yoz oylarining ikkinchi yarmida qor erishi va yog‘ingarchilik kamayganda aynan shu omil dalalar va bog‘larning barqaror sug‘orilishini ta’minlagan. Kosonsay tepaliklari va allyuvial yelpig‘ichlarining shakllanishi natijasida vohada lalmikor dehqonchilik uchun qulay zonalar bilan birga, pastroqda sun‘iy sug‘orishga tayanadigan dehqonchilik maydonlari ham vujudga kelgan. Shu sababli, yuqori va o‘rta oqimlarda yog‘in miqdorining ko‘pligi lalmikor yerlarni, pastki oqim va konussimon chiqish hududlarida esa kanal va ariqlar tarmog‘iga ulangan sug‘orma dalalarni shakllantirgan [1, 3]. Paleobotanik nuqtai nazardan bunday ikki bosqichli tizim donli ekinlar, dukkaklilar va yem-xashak o‘simliklarining turli guruhlar bo‘yicha joylashuvi, almashlab ekish va chorvachilik ehtiyojlari bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan agroirrigatsion landshaftni anglatadi.

Kosonsay vohasida, aniqrog‘i, Kosonsay tumanida 1970–1980-yillar davomida qayd qilingan Muqqal’a, Tagijartepa, Navjartepa, Nog‘oratepa I–II, Bulakbashi, Gurmiron kabi yodgorliklar bir butun sistema sifatida ko‘riladi [2, 109; 5, 17]. Ularning xronologiyasi miloddan avvalgi bronza davridan to rivojlangan o‘rta asrlargacha bo‘lgan oraligni qamrab oladi. Ayniqsa, Bulakbashi bronza davri manzilgohi, Kosonsay va Xitoysoy bo‘ylarida qayd etilgan kichik tepaliklar, Gurmiron mozar-qo‘rg‘onlari va Kosonsayning chap qirg‘og‘idagi erta antik va ilk o‘rta asr manzilgohlari hududning uzoq davomli agrar o‘zlashtirilishini ko‘rsatadi. Mazkur yodgorliklar majmuasi paleobotanik tahlil uchun shuni anglatadiki, Kosonsay vohasi aholisi qadimdan dehqonchilik va chorvachilikni uyg‘un shaklda olib borgan, don yetishtirish bilan birga, yaylovlar va adirlar chorva mollarini boqish uchun foydalanilgan. Qadimgi manzilgohlarning suv tarmoqlariga nisbatan joylashuvi, ko‘plab tepaliklarning aynan sug‘orish tizimlari bo‘yida joylashgani, bu yerda don ekinlari, sabzavot va mevali daraxtlarning kompleks agrar tizim doirasida yetishtirilganidan dalolat beradi.

Fargʻona vodiysi shimoliy hududlaridagi arxeologik yodgorliklar orasida Kultepa va uning atrofidagi qadimiy qatlamlar ham alohida ahamiyatga ega. Norin tumanining markazi – Haqqulobod shahri yaqinida joylashgan Kultepada ilgari oʻtkazilgan kesmalar miloddan avvalgi II–I ming yilliklar va milodiy VI–VII asrlarga oid madaniy qatlamlar mavjudligini koʻrsatgan [6, 91–101]. 2017 yilgi tadqiqotlar ham ushbu kesmalarni tozalash va kengaytirish orqali qadimgi meʼmoriy konstruksiyalar, mudofaa devorlari va yerosti inshootlarini yanada aniqroq qayd etish imkonini berdi. Bu qatlamlar soʻnggi bronza–ilk temir davridan boshlab keyingi davrlargacha boʻlgan bosqichlarda aholi tomonidan ushbu hudud barqaror oʻzlashtirilganini koʻrsatadi. Yerosti xonalari, keng mudofaa tizimlari va shahar devorlari bilan birga, kul qatlamlari va ularning tarkibidagi sopol majmualar bu yerda don mahsulotlari saqlash, tayyorlash va taqsimlash bilan bogʻliq xoʻjalik faoliyatining ancha rivojlanganini anglatadi. Paleobotanik nuqtai nazardan kul qatlamlari va xum oʻralari bilan bogʻliq inshootlar don saqlash omborlari, urugʻ zaxiralari va yem-xashak tayyorlash jarayonlari uchun muhim boʻlgan boʻlishi ehtimol; bu esa soʻnggi bronza–ilk temir davriga kelib Fargʻonaning shimoliy qismida ham kompleks agrar tizim shakllanganini koʻrsatadi. Umuman olganda, Toʻraqurgʻon, Kosonsay va Norin tumanlarida qayd etilgan yodgorliklar majmuasi Fargʻona vodiysi soʻnggi bronza–ilk temir davri paleobotanik tahlili uchun muhim makoniy va xronologik ramka yaratadi. Bulakbashi bronza davri manzilgohi, Kosonsay boʻyidagi antik va oʻrta asr shahar harobalari, Kultepa va boshqa komplekslar yirik sugʻorish tizimlari, togʻoldi lalmikor zonalar va allyuvial tekisliklardan iborat murakkab landshaft ichida joylashgan. Bu landshaftda donli ekinlar, dukkaklilar, yem-xashak oʻsimliklari va mevali daraxtlar bir butun agrar tizim doirasida faol aylangan. Hisobot matnida bevosita urugʻ, don yoki oʻsimlik qoldiqlari tasvirlanmagan boʻlsa-da, irrigatsiya tarixiga, manzilgohlarning suv tarmoqlariga nisbatan joylashuviga va yodgorliklarning xronologiyasiga doir maʼlumotlar paleobotanik rekonstruktsiya uchun zarur boʻlgan asosiy geobotanik va xoʻjalik koʻrsatkichlarini aniqlashga imkon beradi.

Chust bronza davri manzilgohi Fargʻona vodiysining qadimiy agrar-madaniy jarayonlarini oʻrganishda muhim obyektlardan biri hisoblanadi. Manzilgohning hududiy joylashuvi, daryo terrasalari yaqinidagi tabiiy-geografik sharoitlar va relyefning xususiyatlari bu yerda erta oʻtroq hayot shakllanganini koʻrsatadi. Qazishmalar davomida aniqlangan madaniy qatlamlar ketma-ketligi, uy-joy va xoʻjalik inshootlarining konstruktiv tuzilishi, ularning reja chizmasidagi tartibi bronza davri aholisi tomonidan shakllantirilgan turmush tarzini tasavvur qilish imkonini beradi. Manzilgohda ochilgan uy-joy qoldiqlari, devor poydevorlari, oʻchoqlar va xoʻjalik inshootlari oʻtroq yoki yarim oʻtroq xoʻjalik yuritish tizimini aks ettiradi [11,185-188].

Stratigrafik kuzatuvlardan kelib chiqib, madaniy qatlamlarning ichki rivojlanish bosqichlarini ajratish, bu jarayonlar davomida shakllangan turli xoʻjalik tuzilmalari va ishlatilgan mehnat qurollarini aniqlash imkonini beradi. Topilgan sopol idishlar, ularning shakl, bezak va texnologik xususiyatlari bronza davri hunarmandchilik anʼanalari va mahalliy ishlab chiqarish tajribalarini ochib beradi. Sopol anjomlarning shakl va bezaklaridagi oʻziga xoslik Chust madaniyatining

ichki taraqqiyotini hamda boshqa hududlar bilan aloqalarini ko'rsatadi. Qazishmalar davomida olingan tosh qurollar, metall buyumlar, ularning ishlov darajasi va funksional belgilari bronza davri turmush tarzining iqtisodiy asoslarini tushunishga yordam beradi. Xonalar ichidan topilgan kul qatlamlari, yonib ketgan organik qoldiqlar va maishiy izlar don tayyorlash, qayta ishlash, oziq-ovqat saqlash bilan bog'liq jarayonlarning mavjud bo'lganini bildiradi. Bu esa manzilgoh aholisi dehqonchilik bilan shug'ullanganini ko'rsatadi [11, 186-190]. Chorvachilik bilan bog'liq ayrim izlar esa o'troq dehqonchilik va chorvachilikning uyg'unlashgan xo'jalik shaklini taxmin qilish imkonini beradi. Hududning uzoq tarixiy bosqichlar davomida o'zlashtirilgani, qatlamlarda uchragan turli davrga oid izlar bilan sezilib turadi, biroq Chust bronza davriga oid moddiy madaniyat unsurlari ayniqsa barqaror va izchil ko'rinishda qayd etiladi. Topilmalar majmuasi bu yerda o'sha davr aholisi turmush tarzining asosiy yo'nalishlari – uy-joy qurilishi, xo'jalik faoliyati, dehqonchilik va hunarmandchilik tarmoqlari shakllanganligini tasdiqlaydi. Manzilgohning reja tuzilishidagi tartib, xo'jalik hududlarining aniq chegaralanganligi va turli inshootlarning vazifalariga ko'ra ajratib borilganligi jamiyat ichidagi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar ma'lum darajada murakkablashganidan dalolat beradi. Chust manzilgohi Farg'ona vodiysi bronza davri tarixini o'rganishda asosiy tayanch manbalardan biri bo'lib, bu yodgorlikda qayd etilgan arxeologik dalillar hududning erta agrar madaniyat shakllanishida tutgan o'rnini tasdiqlaydi.

Farg'ona vodiysining so'nggi bronza – ilk temir davri paleobotanik manzarasi Chust manzilgohida qayd etilgan dalillar asosida tiklanadi. Madaniy qatlamlarning turli chuqurliklaridan olingan organik qoldiqlar, xususan don zarralari, yonib ketgan o'simlik qoldiqlari, kul va maishiy chiqindilar tarkibida saqlanib qolgan o'simlik izlari bu davrda dehqonchilik xo'jaligi asosiy tarmoqlardan biri bo'lganini ko'rsatadi. Ayrim yarim yerto'la uy va xo'jalik chuqurlarining tagida yig'ilib qolgan bug'doy, arpa va arpasimon o'simlik donlari ularning uy ichida saqlanganini, qayta ishlanganini yoki yong'in jarayonida karbonlashganini anglatadi [10, 185–190]. Donlarning yirik idishlar ichida to'plangan holda ham, yonib ketgan kul qatlamlari osti va yonida ham uchrashi manzilgoh aholisi donni ma'lum jarayonlardan o'tkazganini, yig'ilgan hosilning bir qismi uy xo'jaligi ichida qayta ishlanganini ko'rsatadi. Topilgan ko'plab tosh serplar, don yanchish toshlari, dehqonchilikning doimiy va yetakchi faoliyat bo'lganini tasdiqlaydi. Don yanchishga oid izlar bilan birga saqlanib qolgan poya qoldiqlari, maydalangan tola unsurlari o'simliklarning g'alla ko'rinishida yetishtirilganini va ular kundalik iste'molda keng qo'llanganini anglatadi. To'qimachilik faoliyatiga tegishli izlar - o'simlik tolalaridan olingan ip, arqon va mato izlari - yetishtirilgan o'simlik resurslarining xo'jalikda turli maqsadlar uchun ishlatilganini ko'rsatadi [10, 185–190].

Manzilgohda chorvachilik izlari bilan birga topilgan don va o'simlik qoldiqlari dehqonchilik va chorvachilikning uyg'un holda shakllanganini namoyon qiladi. Pastki qatlamlarga nisbatan yuqori qatlamlarda donlarning ko'proq uchrashi vaqt o'tishi bilan dehqonchilikning yanada mustahkamlanganini bildiradi tariqsimon o'simlik donlarining bir nechta o'lchamda uchrashi prosning turli navlari

yetishtirilganini ko'rsatadi. Bug'doy va arpa donlaridagi morfologik farqlar esa ekilgan madaniy o'simliklarning bir nechta irq va tipga mansub bo'lganini anglatadi. Manzilgohning daryo terrasalariga yaqin joylashgani, yer osti suvlarining mavjudligi, sug'orish imkoniyatlari va unumdor tuproq qatlamlari paleobotanik topilmalar bilan uyg'un holda so'nggi bronza - ilk temir davri Farg'ona vodiysida agrar tizimning erta shakllanganini ishonch bilan ko'rsatadi.

Farg'ona vodiysi hududida, xususan Andijon viloyatidagi Koshtepa-2 yodgorligida olib borilgan tadqiqotlar so'nggi bronza davri va Chust madaniyati qatlamlari mavjudligini tasdiqlaydi. 2018–2019-yillardagi qazishmalar [8, 141–157] davomida yodgorlikning quyi qatlamlaridan Chust madaniyatiga oid bo'lgan materiallar, jumladan, humniki bo'laklari va toshdan tayyorlangan serp (o'roq) blankasi topilgani mazkur hududda bronza davri aholisining dehqonchilik faoliyati bilan shug'ullanganidan dalolat beradi. Serp blankasi donli ekinlarni o'rish uchun mo'ljallangan eng asosiy qurol sifatida qayd qilingan bo'lib, bu yerda o'troq yoki yarim o'troq xo'jalik shakllari mavjud bo'lganini ko'rsatadi.

Chust madaniyati materiallarining quyi qatlamlarda uchrashi Koshtepa-2 atrofida bronza davriga oid qadimgi makon yoki manzilgoh mavjud bo'lganini taxmin qilish imkonini beradi. Qazishmalar jarayonida quyi qatlamlarga xos bo'lgan tosh buyumlar, humniki bo'laklari, shuningdek, madaniy qatlamlardagi kul aralash komponentlar aniqlangan bo'lib, ular qadimgi xo'jalik faoliyatining izlari sifatida baholanadi. Tadqiqotlar davomida qatlamlarning tarkibida kul, ko'mir, yonib ketgan organik qoldiqlar uchragani bronza davri aholisi tomonidan o'choq, maishiy qayta ishlash va xo'jalik jarayonlarining mavjudligini ko'rsatadi. Bu hodisalar don mahsulotlari bilan ishlov berilganini, xonalar ichidagi kul-to'plamlar esa qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat tayyorlash jarayonlari bilan bog'liqligini tasdiqlaydi. Koshtepa-2 ko'p qatlamli yodgorlik bo'lib, uning quyi qismi bronza davriga oid, ustki qismida esa antik va erta o'rta asr qatlamlari joylashgan. Chust madaniyatiga oid topilmalar aynan quyi qatlamlarda qayd etilgan va ular 2019-yilda qayta aniqlangan bo'lib, bu hududda so'nggi bronza davridan boshlab o'troq yoki yarim o'troq agrar hayot shakllanganini ko'rsatadi. Shuningdek, yodgorlikning janubiy qismida, devor poydevori yaqinida aniqlangan geometrik konstruksiyalar va o'choq izlari bronza davri xo'jalik faoliyati bilan bog'liq bo'lgan bo'lishi ehtimol qilinadi [8, 141–157]. Topilmalar orasida ko'plab sopol parchalari, jumladan, Chust madaniyatiga mansub bo'laklarning uchrashi yodgorlik hududi qadimgi dehqonchilik an'analari bilan bog'liq bo'lganini yana bir bor tasdiqlaydi. Eng muhim dalillardan biri sifatida serp blankasi qayd etilib, u Zadneprovskiy tomonidan tasvirlangan Chust madaniyati tosh o'roqlariga to'liq mos tushishi qayd qilingan. Bu element aynan bronza davri agrar faoliyatining bevosita isboti sifatida ko'riladi. 2018–2019-yillardagi dala tadqiqotlari natijalariga ko'ra, Koshtepa-2 yodgorligi atrofidagi hudud qadimdan tabiiy-geografik sharoitlari tufayli o'troq hayot uchun qulay bo'lgan.

Bronza davriga oid makonlardan tashqari, yon atrof hududlarda neolit va paleolit davrlariga oid topilmalar qayd etilgani bu hududning uzoq davrlar davomida uzluksiz o'zlashtirilganini ko'rsatadi. Ammo aynan so'nggi bronza – ilk temir davri kontekstida eng barqaror dalillar Chust madaniyatiga oid materiallar

bo'lib, ular agrar faoliyat, don yetishtirish, uni qayta ishlash va o'choqli uy xo'jaligi tizimi mavjud bo'lganini aniq ko'rsatadi.

Markaziy Osiyoning qadimiy agrar tizimlari haqida tasavvur shakllantirishda tabiiy geografiya, o'simliklar tarqalishi, arxeologik topilmalar va turli tarixiy manbalardan kelib chiqadigan ma'lumotlar o'zaro uyg'unlikda tahlil qilinishi zarur [Spengler, 2019]. Mintaqa bo'ylab qadimgi ekinlarning tarqalish yo'llari, ayniqsa donli ekinlar va mevali daraxtlarning diasporasi, madaniy almashinuvning qadimgi shakllari bilan chambarchas bog'liq. Spenglerning qadimgi o'simliklarning tarqalishi va Ipak yo'li bo'ylab agrar tizimlarning shakllanishi haqidagi tadqiqotlari ana shu jarayonlarni yoritishda keng imkoniyat yaratadi. Markaziy Osiyoda bug'doy, arpa, tariq, dukkaklilar, tok va boshqa mevali daraxtlarning qadimiylashuvi ko'p vektorli madaniy aloqalar va ekologik sharoitlarning o'zaro ta'siri orqali shakllangan murakkab tizimni ko'rsatadi. Bu jarayonda Farg'ona vodiysi geografik, iqtisodiy va madaniy o'tkazgich sifatida alohida o'rin egallagan.

Spenglerning yondashuvida Markaziy Osiyodagi qadimgi ekin turlarining tarqalishi faqat agrar jarayon emas, balki murakkab ijtimoiy aloqalar, migratsiya, almashinuv va boshqa madaniy omillar bilan birga shakllangan tarixiy hodisa sifatida talqin qilinadi. Ipak yo'li nafaqat savdo yo'lagi, balki o'simliklarning tarqalishidagi asosiy mexanizmlardan biri bo'lgan. Donli ekinlarning g'arbiy Osiyodan sharqqa qarab, yoki aksincha sharqdan g'arbga tomon tarqalishi ko'p bosqichli bo'lib, unda daryo vodiylari, tog'-oldi hududlari va qulay ekologik makonlar muhim rol o'ynagan. Farg'ona vodiysi bu yo'nalishning eng faol bo'g'inlaridan biri bo'lib, qadimdan muhim chorrahaga aylangan [Spengler, 2019]. Vodiyning tabiiy sharoiti, iqlimiy omillari, suv manbalari va tuproq unumdorligi mintaqaning qadimgi dehqonchilik madaniyatlari uchun mustahkam asos yaratgan. Mevali daraxtlar, ayniqsa tokning qadimgi tarqalishiga doir ma'lumotlar Farg'ona vodiysining bu jarayondagi o'rnini yanada yoritadi. Tokning g'arbiy Osiyo, Markaziy Osiyo va Sharqiy Osiyo bo'ylab tarqalishida vodiylar, tog'li yo'laklar va savdo yo'llari hal qiluvchi omil bo'lgan. Tokning yovvoyi ajdodlari asosan Janubiy Kavkaz, Eron, Kopetdag oldi zonalari, Pomir–Olay tizmalari atrofida uchraydi. Shular qatorida Farg'ona vodiysi ham tabiiy va madaniy tok navlari uchrashadigan hudud sifatida tilga olinadi. Vodiyning o'simlik dunyosi, ayniqsa tog'oldi zonalari, qadimdan mevali daraxtlar xilma-xilligiga boy bo'lib, bu esa bog'dorchilik va vinochilikning rivoji uchun qulay asos yaratgan.

Tarixiy manbalarda Farg'ona vodiysining uzumchilik markazlaridan biri bo'lgani qayd etilishi, tokning qadimgi tarqalishi Farg'ona orqali amalga oshganini tasdiqlaydi. Zhang Qian haqidagi ma'lumotlarda uning Farg'onadan Xitoyga qaytayotib uzum novdasini olib borganligi qayd etilgan. Bu voqea ilk temir davri kontekstida tok yetishtirish an'analari Farg'onada avval shakllanganini ko'rsatadi [14, 132–135; 184–186]. Shuningdek, Xitoy yilnomalarida Farg'ona uzumidan sharob tayyorlanishi haqida berilgan ma'lumotlar mintaqada vinochilikning qadimiyligini bildiradi. Tokning madaniylashuvi Markaziy Osiyoning sharqiy hududlarida, jumladan Farg'onada, miloddan avvalgi ming yillik o'rtalarida mavjud bo'lgan dehqonchilik an'analari bilan bog'lanadi. Spengler agrar tarixni

rekonstruksiya qilishda botanika, arxeobotanika, genetika va tarixiy ma'lumotlarni birlashtirgan holda, qadimgi o'simliklarning tarqalish mexanizmlarini aniqlaydi.

Mevali daraxtlarning, xususan tokning genetik xilma-xilligi Markaziy Osiyoning turli hududlari bilan bog'liq bo'lib, ularning qadimiy markazlaridan biri sifatida Farg'ona vodiysi ham ahamiyat kasb etadi. Bu hududda turli tabiiy navlar kesishgan va ular ekinlar almashinuvining muhim bo'g'ini sifatida shakllangan. Tokning genetik xilma-xilligi uni qadimdan kuzatilgan madaniy faoliyat bilan bog'laydi. Tokning tarqalish jarayoni nafaqat madaniylashtirilgan navlarning kengayishi, balki yovvoyi navlarning qo'shilishi orqali ham sodir bo'lgan bo'lib, bu jarayon ekologik va ijtimoiy aloqalarning murakkabligini ko'rsatadi. Donli ekinlarning tarqalishi ham ko'p omillik jarayon bo'lib, Farg'ona vodiysida bug'doy, arpa va arpasimon ekinlarning qadimdan yetishtirilganini ishonch bilan taklif qilish mumkin. Begash, Tasbas va boshqa yodgorliklarda aniqlangan don qoldiqlari Markaziy Osiyoning sharqiy va janubiy hududlari bilan bog'liq bo'lgan almashuv tizimini yoritadi. Bu yodgorliklarda topilgan makrofossillar donli ekinlarning tarqalish yo'nalishlari haqida muhim dalillar beradi. Masalan, Begashdagi miloddan avvalgi 2400–2000-yillarga oid qatlamlardan topilgan bug'doy va arpa donlari Markaziy Osiyo bo'ylab donli ekinlarning qadimiy tarqalish yo'nalishlarini tiklashga yordam beradi. Bu dalillar Farg'ona vodiysi bilan qo'shni hududlar o'rtasida almashuv tizimlari bo'lganini ko'rsatadi.

Markaziy Osiyoning tog'li va tog'oldi hududlari agrar tizimlar shakllanishi uchun qulay bo'lgan [14, 44–47]. Suv manbalari, o'tloqzorlar va unumdor tuproqlar dehqonchilikning rivojlanishini rag'batlantirgan. Farg'ona vodiysi ham tabiiy sharoitlari bilan qadimgi dehqonchilik uchun qulay makon bo'lgan. O'simliklar tarkibidagi xilma-xillik va ekologik sharoitlarning nisbatan barqarorligi dona yetishtirish jarayonlarini mustahkamlab turgan. Qadimgi aholi ushbu sharoitlarda madaniy ekinlarni parvarishlab, hosilni yig'ish, saqlash va qayta ishlash bo'yicha jiddiy ko'nikmalarga ega bo'lgan. Ipak yo'li orqali ekinlarning tarqalish jarayoni, ayniqsa mevali daraxtlar va ziravorlar, Markaziy Osiyoning agrar madaniyati tarixini yanada boyitadi. Bu yo'nalishda Farg'ona vodiysi tranzit hudud sifatida ko'p marotaba eslatiladi. Tarixiy va arxeologik dalillarga ko'ra, mintaqa orqali qadimgi agrar mahsulotlar Sharqiy Osiyoga tomon harakat qilgan. Farg'ona tabiiy sharoitlari va madaniy almashuv tizimi sharqiy hududlar bilan aloqalarni kuchaytirgan. Bu aloqalar orqali nafaqat donli ekinlar, balki mevalar, tok navlari, ba'zi ziravorlar ham tarqalgan bo'lib, bu jarayon Ipak yo'lining agrar tarixda tutgan rolini yoritadi. Tok va mevali daraxtlarning qadimiy tarqalishida ekologik omillar bilan bir qatorda ijtimoiy ko'nikmalar ham muhim o'rin tutgan. Mevali daraxtlarni ko'paytirish, ularni parvarish qilish, uzumni qayta ishlash kabi jarayonlar qadimgi dehqonchilik madaniyatlarining muhim bo'limi bo'lgan.

Farg'ona vodiysi bu jarayonning rivojlanishi uchun tabiiy sharoitlar bilan ta'minlangan. Tog'oldi hududlaridagi yumshoq iqlim va bo'linma mikrozonalar tok, olma va o'rik kabi mevali daraxtlar tarqalishi uchun qulay sharoit yaratgan. Bu esa keyingi davrlarda Farg'onaning mevali bog'lari haqida shakllangan tarixiy tasavvurlarning asosini qo'yadi [14, 182–187]. Markaziy Osiyo o'simliklarining genetik xilma-xilligi ayniqsa mevali daraxtlar tarkibida yaqqol ko'rinadi. Tokning

qadimgi navlari Pomir–Olay tizmalari va unga tutash hududlarda izlab topilgan. Fargʻona vodiysining sharqiy va shimoli-sharqiy qismi oʻsimliklar uchun qulay ekoton boʻlib xizmat qilgan. Bu hududda yovvoyi va madaniy navlarning kesishishi uzumchilikning qadimiy manzarasini tiklashda muhim rol oʻynaydi. Tokning qadimgi navlari mintaqada tarqalishi jarayonida oʻtgan yoʻllarini koʻrsatadi va Fargʻonaning tok tarixi bilan bogʻliq ahamiyatini belgilaydi. Arxeologik maʼlumotlar bilan bir qatorda, tabiiy-geografik omillar ham Fargʻona vodiysida paleobotanik jarayonlarni yoritishda muhim oʻrin tutadi. Daryolarning togʻoldi hududlardan oqib kelishi, unumdor allyuvial tuproqlar hosil qilishi, suv manbalarining mavjudligi dehqonchilik uchun qulay sharoit yaratgan. Togʻoldi mintaqalaridagi tabiiy oʻtloqlar chorvachilik va dehqonchilikning uygʻun shakllari paydo boʻlishida asosiy manba boʻlgan.

Bu hududlarda dehqonchilik va chorvachilik oʻzaro bir-birini toʻldiruvchi tizim sifatida rivojlangan boʻlib, ekinlarning tarqalish yoʻllarini osonlashtirgan. Markaziy Osiyo boʻylab tarqalgan qadimiy qishloq xoʻjaligi madaniyatlarini oʻrganishda etnobotanika, arxeobotanika va tarixiy lingvistika ham muhim ahamiyat kasb etadi. Qadimgi xalqlarning oʻsimlik nomlari bilan bogʻliq til materiallari, ekinlar yovvoyi navlarining tarqalish areallari va ularning qadimiy markazlarini aniqlashda yordam beradi. Spenglerning tadqiqotlarida turli oʻsimliklar nomlarining etimologiyasi ham koʻrib chiqilgan boʻlib, bu madaniy almashinuvning qadimgi ildizlari haqida qoʻshimcha dalillar beradi. Fargʻona vodiysi qadimiy agrar tizimlari oʻtroq xoʻjalik shaklining barvaqt paydo boʻlganini tasdiqlaydi. Ekinlarning tarqalish yoʻnalishlari, mevali daraxtlarning qadimgi navlarining mavjudligi, tokning sharqqa tarqalishida vodiyning muhim oʻrni mintaqadagi agrar jarayonlarning murakkabligidan dalolat beradi.

Dehqonchilikning rivojlanishi bilan bir qatorda, Fargʻona jamiyatlari oʻz agrar tizimlarini boshqa hududlar bilan bogʻlagan. Almashinuv tizimlari orqali nafaqat mahsulotlar, balki bilimlar, texnika va madaniy anʼanalar ham tarqalgan. Bu jarayon natijasida Fargʻona vodiysi Markaziy Osiyoda agrar sivilizatsiyaning muhim boʻgʻiniga aylangan. Donli ekinlar, mevali daraxtlar va tok yetishtirish boʻyicha shakllangan anʼanalar mintaqaning iqtisodiy va madaniy hayotida katta oʻrin tutgan. Spenglerning tadqiqotlari orqali qadimgi agrar tizimlarning shakllanishi va ularning keng hududlar boʻylab tarqalish jarayonlari haqida batafsil maʼlumot olish mumkin. Bu maʼlumotlar Fargʻona vodiysi agrar tarixini qayta tiklashda muhim ilmiy asos vazifasini bajaradi. Vodiyning tabiiy sharoitlari, madaniy almashinuvdagi faol roli, oʻsimliklarning genetik xilma-xilligi va arxeobotanik dalillar mintaqadagi soʻnggi bronza–ilk temir davri dehqonchilik tizimining murakkab va koʻp tarmoqli boʻlganini koʻrsatadi.

XULOSA

Fargʻona vodiysi soʻnggi bronza–ilk temir davrida Markaziy Osiyoda agrar madaniyat shakllangan asosiy hududlardan biri boʻlgan. Chust madaniyati ushbu jarayonning markazida turib, aholi dastlab yertoʻla uylarda yashab, chorvachilik va liman dehqonchiligi bilan shugʻullangan, keyinchalik esa yer usti uylar, sugʻorma dehqonchilik va bogʻdorchilik rivojlangan. Topilgan tosh serplar, don yanchish

qurollari, yonib ketgan don va o'simlik qoldiqlari dehqonchilikning barqaror tarmoq bo'lganini tasdiqlaydi.

To'raqurg'on, Kosonsay va Norin hududlaridagi yodgorliklar agrar landshaftning erta shakllanganini ko'rsatadi. Kosonsay vohasining tabiiy-geografik xususiyatlari ikki bosqichli – lalmikor va sug'orma dehqonchilik tizimining shakllanishiga zamin yaratgan. Kultepa va Koshtepa-2 yodgorliklaridan olingan ma'lumotlar don yetishtirish, saqlash va qayta ishlash jarayonlari yaxshi rivojlanganini bildiradi.

Arxeologik va paleobotanik dalillar Farg'ona vodiysining qadimdan barqaror agrar markaz bo'lib shakllanganini, ekinlarning tarqalishi va agrar almashuv jarayonlarida hududning muhim o'rin tutganini ko'rsatadi.

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Абдулхамидов А. Ташкент оазисада ирригация ва деҳқончилик тарихидан. – Ташкент, 1990.
2. Ахоров И. Археологические исследования в Намаганской области. – Ташкент, 1976.
3. Заднепровский Ю.А. Сокровища Хок и Афлатун. – Ташкент, 1962.
4. Заднепровский, Ю. А. *Древнеземледельческая культура Ферганы* // Материалы и исследования по археологии (МИА). - Вып. 118. - М. – Л. : Наука, 1962. - С. 74–76.
5. Исамиддинов М. Отчет о археологических разведках в Наманганской области. – Самарканд, 1984.
6. Исамиддинов М., Матбабаев Б., Кучкаров А. Култепа у Хаккулобада и его культурные слои. // Археологические исследования в Узбекистане. – Самарканд, 1983. – С. 91–101.
7. Матбобоев Б. Х. Далварзин шаҳар харобаси // Қадимги Фарғона шаҳарлари. – Тошкент : Фан, 2008. – Б. 20–37.
8. Матбобоев Б.Х., Жу Янши, Хошимов Х., Мамиров О., Алиохунов А., Хакимов А. Мингтепада 2018–2019 йилларда олиб борилган археологик ишлар // Археологические исследования в Узбекистане. – Самарканд: Институт археологии АН РУз, 2019. – Вып. 12. – С. 141–157.
9. Рахманов З.О. Наманган вилояти Тўрақўрғон, Косонсой ва Норин туманларида олиб борилган қидирув–текширув ишлари бўйича ҳисобот. – Самарканд, 2018.
10. Спришевский В.И. Раскопки Чустского поселения в 1956 г. // Советская археология. – 1958. – №3. – С. 185–190.
11. Спришевский В.И. Чустское поселение эпохи бронзы (из раскопок 1954 г.) // КСИИМК. – Вып. 69. – М., 1954
12. Frachetti M. Pastoralist Landscapes and Social Interaction in Bronze Age Eurasia. University of California Press, 2008.
13. Miller N.F. Archaeobotany in Central Asia // Bulletin of the Indo-Pacific Prehistory Association. – 1999. – Vol. 18. – P. 139–148.
14. Spengler R.N. Fruit from the Sands: The Silk Road Origins of the Foods We Eat. – Berkeley: University of California Press, 2019.

Аскарров О. И.

Старший научный сотрудник отдела «Лаборатория биоархеологии»
Национальный центр археологии
askarovollabergan@gmail.com

ОТРАЖЕНИЕ ИСТОРИИ ФЕРГАНСКОЙ ДОЛИНЫ ПОЗДНЕГО БРОНЗОВОГО - РАННЕГО ЖЕЛЕЗНОГО ВЕКА В ПАЛЕОБОТАНИЧЕСКИХ МАТЕРИАЛАХ

АННОТАЦИЯ

Ферганская долина в позднебронзовый – раннежелезный период представляла собой один из наиболее развитых аграрных центров Средней Азии. Культура Чуст занимает ключевое место в этом процессе, отражая переход от полуземлянок, пастбищного скотоводства и лиманного земледелия к наземным постройкам и ирригационным системам. Археологические и палеоботанические материалы из Туракургона, Косонсай, Нарына и Коштепа-2 демонстрируют сложившиеся практики возделывания, сбора, хранения и переработки злаков. Каменные серпы, углистые слои, обугленные зерна и хозяйственные площадки подтверждают, что Ферганская долина уже в древности функционировала как стабильный и развитый аграрный центр.

Ключевые слова: Ферганская долина, культура Чуст, палеоботаника, бронзовый век, земледелие, ирригация, просо, ячмень, пшеница, Косонсай, Култепа, аграрный ландшафт, хозяйственная система.

Askarov O. I.

Senior researcher at the department of «Bioarchaeology laboratory»
National Center of Archaeology
askarovollabergan@gmail.com

REPRESENTATION OF THE LATE BRONZE–EARLY IRON AGE HISTORY OF THE FERGHANA VALLEY IN PALEOBOTANICAL MATERIALS

ABSTRACT

During the Late Bronze–Early Iron Age, the Ferghana Valley emerged as one of the most developed agricultural centers of Central Asia, with the Chust culture serving as a core component of this transformation. Archaeological and paleobotanical evidence reveals a transition from semi-subterranean dwellings, pastoral activities, and floodplain farming to surface architecture and increasingly complex irrigation systems. Findings from Turaqurgan, Kosonsay, Norin, and Koshtepa-2 indicate well-established practices of cereal cultivation, harvesting, storage, and processing. Stone sickles, ash layers, carbonized grains, and household features collectively confirm that the Ferghana Valley functioned as a stable and advanced agrarian center from early antiquity.

Keywords: Ferghana Valley, Chust culture, paleobotany, Bronze Age, agriculture, irrigation, millet, barley, wheat, Kosonsay, Kultepa, agrarian landscape, subsistence system.